

Millatlararo totuvlik – yurt e'tiborida

t.f.n. I.Yo'ldashev QDPI o'qituvchisi

D.Nuriddinova QDPI magistranti

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq millatlararo totuvlik masalasiga alohida e'tabor qaratildi. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov aytib o'tganlaridek: "Chor Rossiyasi so'ngra esa Sovet Davlatining aniq maqsadga yo'naltirilgan migratsiya siyosati Markaziy Osiyo mintaqasi aholisining poleetnik tarkibi yanada xilma hil bo'lishga olib kelgandi".[1. 82-b] Ma'lumki mamlakatimizda hali 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilishadi. Sobiq ittifoqning so'ngi yillarida ya'ni yurtimiz mustaqillikka erishishi arafasida butun ittifoq miqiyosida milliy nizolar avj olgan edi. Shu sababli mustaqillikning ilk yillaridanoq millatlararo totuvlikka katta e'tibor qaratildi. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: "Fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlini ta'minlash, qonuniylik va huquq tartibotini, qaror toptirish mana shunday sisyosiy davlat konstitutsiyaviy tuzumga erishish kalitidir".[2. 5-b] Avvalo millatlararo totuvlikni huquqiy asoslari yaratildi. Konstitutsiyaning 4-moddasida "O'zbekiston o'z hududida istiqomqd qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlayd, ularning rivjlanishlari uchun shart-sharoit yaratadi", 8-moddasida esa "O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar O'zbekiston Respulikasining fuqarolarini tashkil qiladi" shuningdek yana 18-moddasida esa millatlar o'rtasida totuvlikni huquqiy asos sifatida – "Jinsi, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdir" deyilgan bo'lsa, shuningdek yana 31-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi, har bir inson hohlagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega", "Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo'l qo'yilmaydi".[3. 4,5,6,9-b] deb belgilab qo'yilganligi yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar hamjihat, hamfikir bo'lib yashashlariga, tinchlik va osoyishtalik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, millatlararo totuvlikni ko'z qorachig'imizdek asrashga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari 1998

yilda qabul qilingan diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mana shunday chora-tadbirlarning barchasi, barcha millat va elatning ahil-inoq, tinch-totuv bo'lib yashashlaiga davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyat va sharoitlardir. Darhaqiqat millatlar o'rtasidagi do'stlik va inoqlikni mustahkamlashda mamlakatimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shulardan yana biri 1992-yil 13-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan Respublika Baynalminal madaniy markazining tashil etilganidir. Bunday Baynalminal markazlarning tashkil etilishi mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillarining milliy va ma'daniy qadriyatlarini tiklash va asrashga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari yurtimizda yashayotgan barcha millatlar o'z xaftalaliklarini bayramona nishonlashmoqda. Ya'ni Koreys haftaligi, Rus haftaligi, Qozoq, Tojik haftaliklari shular jumlasidandir. Bunday haftaliklarni o'tkazilishi xar bir millatning urf-odat va an'analarini asrashini hurmat qilishini qolaversa, millatlar o'rtasidagi totuvlikni mustahkamlanishida muhim omil bo'lmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'tgan yillar mobaynida "Aholi o'rtasida olib borilayotgan ma'naviy – ma'rifiy va targ'ibot, tashfiqot ishlarini ta'sirchanligi va samarasini oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga muvofiq Respublika Baynalminal madaniyat markazi turli jamoat va davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasi" barcha viloyatlar hamda Toshkent shaxrida "Qudratimiz – birlik va xamjihatlikda", "Vatan- yagonadir", "Vatan bittadir" shiori ostida yuzdan ortiq do'stlik va madaniyat festivallari o'tkazildi, shuningdek, "Tasviriy oyna" hamkorligida Respublika ijodiyot uyi bilan xamkorlikda "O'zbekiston umumiy uyimiz" to'g'risida ko'rgazmalar "Shu aziz vatan barchamizniki", "Yoshlar birlashdsa-millat birlashadi", "Maqsad bir g'oya bir vatan yagona" mavzularida turli millat vakillari hamda 1000 dan ziyod, talabalar ishtirokida ilmiy amaliy seminarlar o'tkazilmoqda. Bunday tadbirlarni olib borilishi o'sib kelayotgan yoshlarning qalbiga o'z millatiga mexr-oqibat yashayotgan yurtiga sodiqdir. Boshqa millatlarga nisbatan bag'rikenglik tuyg'ularini yanada chuiqurroq singdirishga keng yo'l ochib bermoqda. O'zbekiston aholisining ko'p millatligi

uning barcha xududlariga xosdir. Ushbu xususiyat Farg'ona viloyatida ham namoyon bo'ladi. Viloyat hududida sanoat tarmoqlari rivojlanib borganligi bois turli millat vakillari yashab keladi. Aholining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etib ularning ulushi 1991 yilda 81,4% 2000 yilda 86,6 % ni va 2009 yilda 88,2 % xozirgi kunga kelib, esa 95% dan ortiqga teng bo'ldi. Bundan tashqari 2009 yilda viloyat aholisining 5,9% tojiklar, 1,7 % ruslar, 2,1 foizini qirg'izlar 0,5 fozini totarlar, 0,2 foizini ukrainlar tashkil etgan. Beshariq, Bog'dod, Buvayda, Furqat tumanlarida aholining 99,4 fozini o'zbek tashkil etgan. O'zbeklar nisbatan kam bo'lgan hududlar Quvasoy, Farg'ona shaxarlari va Rishton tumani hisoblangan. So'x tumanida esa aholining 0,2 fozinigina o'zbeklar tashkil etgan. Shu sababli So'x tumanida joylashgan maktablarning asosiy qismida ta'lim tojik tilida olib boriladi. Bu esa o'sha yerda yashayotgan o'zbek xalqi vakillariga qiyinchiliklar keltirmoqda. Sabab tojik tilida ta'lim olib o'zbek tilida Oliy o'quv yurtlariga imtihon topshirishda qancha muammolar keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun Oliy yurtlari o'z yordamlarini ko'rsatishmoqda. Jumladan bizning Qo'qon Davlat Pedagogika Institutining bir qancha kafedralari o'qituvchilari u yerga borib amaliy yordam berish bilan bir qatorda o'quv va uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlab o'z yordamlarini berishmoqda. Bu ham mamalakatimizda millatlararo munosabatga berilayotgan bir e'tiborning namunasidir. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi tabrik so'zida ta'kidlaganidek: "Biz eng kata boyligimiz bo'lmish jamiyatimizda xukm surayotgan millatlar va fuqarolar o'rtasidagi do'stlik va axillik, mexr-oqibat muhitini mustahkamlar yaqin va uzoq qo'shnilarinmiz bilan o'zaro xurmat va xamjixatliklarni yanada kuchaytirishni o'zimizning eng ustuvor vaifamiz sifatida ko'ramiz". Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki millatlararo mojarolarni kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, yurtimiz qolaversa fuqarolar tinchligini ta'minlash, qiyinchiliklar bilan erishgan mustaqilligimizni asrab avaylashdan iborat.